**Abstract.** The article examines the general processes aimed at strengthening fair taxation practices in world practice on the development trends of taxation. An integral part of this process, along with strengthening a stable system of attracting tax revenues to the state budget, is to assess the risks of tax revenues not reaching the budget in the prescribed amount, identify its causes, and work on this issue is provided both theoretically and practically. The study analyzes the effectiveness of using information systems, segmentation, and risk criteria in assessing and managing tax risks.

**Keywords:** tax rate, tax reporting, tax risk, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax benefits.

## KIRISH

Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlangan, iqtisodiy ong o'sgan, soliq qonunchiligi tez-tez o'zgaradigan sharoitda tadbirkorlar safi kengaygan bir paytda soliq organlari turli soliq xavflarini boshqarish zarurati bilan yuzlashmoqda. Bunga soliq qonunchiligiga rioya qilmasdan soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari yoki korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni ham misol keltirish mumkin. Xavflarni boshqarish qaysi sohada ishlatilmasin, barchasida xavflarni kamaytirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligi amalga oshiriladi. Soliq organlarida ham o'zlarining soliq xavflarini boshqarish tizimini yaratish zaruriyati yuzaga keldi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. I. Ojegov va N. Y. Shvedova (2006) Risk bu "muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid" degan ma'noni anglatadi. V. M. Usoskin (1994) Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi. V. T. Sevruk (2006) Risk — bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir. P. G. Grabovoy, S. N. Petrova, S. I. Poltavtsev (2006) Risk — bu korxonaga resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlarni qilish xavfidir. O. I. Lavrushin (2007) Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi. G. Panova (2014) Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyatidir. J. B.

Sey (2007) Risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya kabi baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usul asosida soliq riskining tadbirkorlik subyektlariga ta'siriga doir ma'lumotlar o'rganildi, ularning tahlili amalga oshirildi hamda ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

**Soliq organlarining ustuvor vazifasi** qonunchilikka muvofiq soliqlar yig'iluvchanligini ta'minlash va shu tartibda soliq tizimini mustahkam saqlab turish sanaladi. Ayrim soliq to'lovchilar rejalashtirilgan holda, e'tiborsizlik tufayli yoki ataylab o'zlarining soliq majburiyatlarini bajarishda kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun soliq organlari soliq qonunchiligiga rioya qilinmagan yoki soliq majburiyatlarini bajarishdan qochish holatlarida zarur strategiyalarni o'z vaqtida va asosli tarzda ishlab chiqishi lozim.

Soliq xavflarini boshqarish tizimini yaratish va uni takomillashtirib borish har qachongidan ham muhimroq vazifaga aylandi. Buni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- soliq organlari duch kelayotgan xavflarning ko'payib borayotganligi;
- biznes tuzilmalarining murakkablashib ketganligi;
- kriptoaktivlar kabi turli xil moliyaviy mahsulotlarning yaratilishi;
- soliq to'lovchilar sonining oshib borishi;
- elektron tijoratning rivojlanib borayotganligi.

Bir paytning o'zida mazkur omillar soliq organlarining samarali ishlashi zaruratini yuzaga keltirdi. Samarali ishni tashkil etishda moddiy-texnika bazasi va inson resurslarining yetarlicha ta'minlanganligi muhim rol o'ynaydi.

Soliq organlari qarorlarda belgilangan topshiriqlar ijrosini bajarib, tashqi manba ma'lumotlarini shakllantirib bo'lgandan so'ng, asosiy e'tibor Soliq qo'mitasining tahlil tizimiga qaratildi.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son Farmoni qabul qilingan. Ushbu Farmon bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik subyektlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruv tashabbusini ilgari surishni nazarda tutuvchi "Xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi belgilandi [1].

Ushbu qaror ijrosi yuzasidan Davlat soliq qo'mitasining 2018-yil 29-avgustdagi 2018-68-son qarori Adliya vazirligida 2018-yil 5-oktabrda 3075-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan [2]. Qarorga muvofiq, dasturiy mahsulot orqali soliqqa oid huquqbuzarlik xavfining ballik tizimi natijalariga ko'ra, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi darajasi quyidagi uch toifaga bo'linadi:

- I. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;
- II. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari;
- III. Soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi past bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.

Shuningdek, mazkur qarorda xavf mezonlari sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan:

- tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kartochkalarida soliq qarzdorligi mavjudligi;
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq majburiyatlarini bajarishda soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha taqdim etilgan soliq hisobotlariga muntazam ravishda, ya'ni bir yil davomida ikki va undan ortiq marta, qayta hisob-kitoblarning amalga oshirilganligi;
- tadbirkorlik subyektlari hisobot davri mobaynida dastlab ro'yxatga olingan yuridik manzilini bir hududdan boshqa bir hududga muntazam ravishda, ya'ni ikki va undan ortiq marta, o'zgartirib borilganligi;
- tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zlariga tegishli bo'lmagan to'lov terminallaridan foydalanilganligi;
- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan aynan bir tadbirkorlik subyekti faoliyatidan noroziligi haqidagi murojaatlar.

Soliq organlarining ma'lumotlar bazasini yanada kengaytirish maqsadida 2020-yil 30-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni bilan 19 ta vazirlik va idoraga real vaqt rejimida ma'lumotlar yuborish vazifasi belgilandi [3].

Farmon bilan Soliq qo'mitasiga 2021-yil 1-aprelga qadar real vaqt rejimida qo'shimcha ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan idoralararo apparat-dasturiy majmuani foydalanishga topshirish vazifasi yuklatildi.

Amaldagi soliq xavfini boshqarish tizimining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori hisoblanadi [4]. Mazkur qaror bilan quyidagilar soliq organlari tomonidan



xavfni boshqarish tizimini qo'llash maqsadlari sifatida belgilangan:

- yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va soliq organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;
- soliq solish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirish;
- faoliyati bo'yicha soliq xavfi past deb aniqlangan soliq to'lovchilarga, ya'ni soliq agentlariga, keyingi o'rinlarda — soliq to'lovchilar, nisbatan soliq nazoratini minimallashtirish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarni, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o'tkazishga tanlab olinadigan soliq to'lovchilarni inson omili ishtirokisiz avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali aniqlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish;
- soliq xavfi darajasidan kelib chiqib, soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari shakllarini aniqlash.

Soliq xavfini aniqlashda xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan o'zaro axborot almashish borasida tuzilgan bitimlar doirasida taqdim etilgan ma'lumotlar, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar, o'tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma'lumotlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar, soliqqa oid huquqbuzarlik faktlari to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda statistika organlaridan olingan ma'lumotlardan foydalanilishi belgilangan.

Qaror bilan soliq to'lovchilar quyidagi mezonlar asosida soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rtacha va yuqori xavf toifalariga ajratilgan:

- soliq yuki;
- ilgari taqdim etilgan soliq hisobotlariga bir necha bor, ya'ni bir hisobot davri uchun uch va undan ortiq marta, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi;
- soliq hisobotida bir necha soliq davridagi, ya'ni ikki va undan ortiq davrdagi, zararlar aks ettirilishi;
- soliq davri davomida soliq to'lovchining joylashgan joyi bir necha bor, ya'ni ikki va undan ortiq marta, o'zgartirilishi va keyinchalik qayta ro'yxatdan o'tkazilishi;
- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha guvohnomasi bekor qilingan, ro'yxatdan chiqarilgan, shuningdek, tugatilgan, faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki bankrot deb topilgan shaxslar bilan amalga oshirilgan bitimlar, ya'ni operatsiyalar;
- sof foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichining past darajada bo'lishi;
- soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq hisobotidagi operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ushbu operatsiyalar bo'yicha boshqa soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotidagi ma'lumotlarga mos kelmasligi;

Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo'llash huquqini beradigan aylanmalarni bir necha yil davomida bir milliard so'mdan past miqdorda ko'rsatgan holda soliq hisobotlarini taqdim etishi; o'tkazilgan soliq tekshiruvlari natijalari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga asosan Soliq qo'mitasi tomonidan soliq xavfini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Soliq xavfini boshqarish jarayoni quyidagi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

- soliq xavfini aniqlash;
- soliq xavfini tahlil qilish;
- soliq xavfini baholash va eng yuqori salmoqqa ega bo'lganlarini aniqlash;
- soliq xavflarini bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish va jarayondagi kamchiliklarni tuzatish.

Birinchi yondashuv soliq to'lovchining iqtisodiy faolligidan, jumladan, sug'urta shartnomalari, uy xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan uskunalariga egaligi hamda bank kreditlaridan kelib chiqqan holda deklaratsiya qilinmagan daromadlarni aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi yondashuv esa moliyaviy investitsiyalar, hashamatli uy-joy va avtomobillarga egalik kabi omillar asosida hisoblab chiqilgan daromadlarni deklaratsiya qilingan daromadlar bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Shuningdek, Daniya tajribasida raqamli platformalardan ma'lumot olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi mol-mulk va avtomobillar oldi-sotdisi hamda ijara shartnomalari bo'yicha ma'lumotlar maxsus raqamli platformalar orqali shakllantirilib, soliq organlariga uzatib boriladi. Ayrim hollarda ijara faoliyatiga oid ma'lumotlar Airbnb kabi platformalar orqali ham soliq organlariga taqdim etiladi.

Litvada veb-dasturlardagi ma'lumotlarni ajratib oluvchi veb-skreyeping ilovasi ishga tushirilgan. Mazkur tizim soliq to'lovchilar nomi bo'yicha ma'lumotlarni izlab, ularni sotuv, ijara, iqtisodiy faoliyat va boshqa guruhlariga ajratadi hamda soliq xavfini baholaydi. Masalan, tizim sotuv faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni aniqlaganidan so'ng, ular tomonidan deklaratsiya taqdim etilmagan bo'lsa, bunday holat yuqori xavf sifatida baholanadi.

Niderlandiyada soliq qonunchiligiga rioya qilish xaritasi yaratilgan bo'lib, u soliq qonunchiligi, uning amaliyotda qo'llanish darajasi hamda soliq to'lovchilarning rioya qilish darajasini o'zaro bog'laydi. Shuningdek, barcha soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga to'liq rioya qilgan taqdirda undirilishi mumkin bo'lgan soliqlar hajmini

aniqlash imkonini beradi. Bu esa soliq organlariga belgilangan maqsadlarga nima sababdan erishilmayotganini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Bunda soliq qonunchiligining murakkablik darajasi, avtomatlashtirish darajasi, soliq to'lovchilarning xususiyatlari, soliq solishdagi xalqaro muammolar hamda soliqlarni undirish imkoniyatlari inobatga olinadi.

Xavf koeffitsientlari va reyting dasturidan boshqa sohalarga nisbatan xavfi yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash hamda bir soha doirasida boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Masalan, xaridlarning sotuvga nisbati, kapital xarajatlarning sotuvga nisbati kabi koeffitsientlardan foydalangan holda soha benchmarking ko'rsatkichlaridan farq qiluvchi anomaliyalar aniqlanadi.

Xorvatiyada QQSni qoplashni bir oyda uch martagacha avtomatik amalga oshirish imkonini beruvchi QQSni qoplash kompozit modeli ishlab chiqilgan. Soliq to'lovchilar tizim orqali avtomatik ravishda xavfi mavjud bo'lmagan, past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratiladi. Xavfi mavjud bo'lmagan soliq to'lovchilarga QQSni qoplash avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Shuningdek, ushbu davlatda ma'lumotlarni saqlash tizimi — Data Warehouse yaratilgan bo'lib, uning yordamida xavf profilini shakllantirish maqsadida xavflarni tahlil qilish mumkin. Ushbu tizim real vaqt rejimida ma'lumotlarni yozuvchi serverlardan farqli ravishda ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Soliq organlari tomonidan soliq tushumlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli xil variatsiyalar, umumiy soliq uzilishlari, soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi, soliq hisobotlarining o'z vaqtida taqdim etilishi, soliqlarni budjetdan qoplash bo'yicha taqdim etilgan arizalar soni kabi ko'rsatkichlarni baholashda segmentlardan umumiy tasniflash guruhi sifatida foydalaniladi.

Segmentlash soliq to'lovchilarni nazorat qilish yoki ularga ko'mak berish kabi maqsadlarni amalga oshirishda qaysi guruhlarga va qaysi paytlarda ko'proq e'tibor qaratish lozimligini belgilab beradi.

Bu, o'z navbatida, turli guruhlar uchun o'ziga xos ta'sir choralarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Ushbu funksiya hatto soliq organida alohida soliq to'lovchilar guruhlari bilan ishlashga ixtisoslashgan yangi tuzilmalar tashkil etilishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki bunday guruhlarning soliq tushumlariga ta'siri, ular foydalanadigan soliq rejimlari va imtiyozlar, shuningdek, amalga oshiradigan operatsiyalari hajmining kattaligi ularni o'rtacha biznes subyektlaridan farqlaydi hamda ularga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Turli davlatlarning soliq organlari soliq to'lovchilarning xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi omillar hamda mavjud institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda segmentlashga turlicha yondashadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq to'lovchilar makrosegmentlar, hududiy segmentlar hamda soliq xavfi darajasidan kelib chiqqan holda alohida segmentlarga ajratiladi. Korxonalar biznes faoliyatining ko'lami va qamrovidan kelib chiqib, yirik soliq to'lovchilar, QQS va foyda solig'ini to'lovchi o'rta biznes subyektlari hamda aylanmadan soliq to'lovchi kichik korxonalariga tasniflanadi.

Ushbu segmentlash mezonlaridan kelib chiqqan holda soliq ma'murchiligini amalga oshirish 1-jadvalga muvofiq quyidagi tuzilmalar kesimida tashkil etiladi.

- 1-jadval
- Soliq to'lovchilarni makrosegmentlar asosida bo'linishi (2025-yil noyabr holatiga)<sup>1</sup>

Segment guruhlari	Soliq to'lovchilar soni	Soliq ma'murchiligini yurituvchi tuzilma
Yirik soliq to'lovchilar	897	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi
O'rta biznes	189 541	Hududiy soliq boshqarmalari
Kichik biznes	378 156	Hududiy soliq inspeksiyalari
<b>Jami</b>	<b>568 594</b>	

Soliq organlarida ushbu segmentlar bo'yicha umumiy tashqi manba ma'lumotlari shakllantirilgan bo'lib, ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish Soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan holda amalga oshiriladi. Ya'ni tashqi manba ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash vakolati bevosita soliq ma'murchiligini yurituvchi tuzilmalarga berilmagan.

Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 8-iyuldagi 2019-45-son qarori bilan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 12-iyulda 3172-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan nizomda belgilangan [5].

Unga ko'ra, aksiz solig'i to'lovchilari, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar, strategik ahamiyatga

1 *Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosidan muallif tomonidan tayyorlandi.*



ega yirik sanoat korxonalari hamda yillik sof tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming baravaridan yuqori bo'lgan, shuningdek, xodimlari soni 10 nafardan kam bo'lmagan subyektlar yirik soliq to'lovchilar sifatida tasniflanadi.

Bunda alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hamda yoqilg'i va gaz quyish shoxobchalari bo'yicha istisno va qo'shimcha mezonlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi. Tegishli davr holatiga ko'ra, yirik soliq to'lovchilar soni 897 tani tashkil etgan.

O'rta biznes vakillariga yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilmagan qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchilari kiradi. Kichik biznes vakillari esa asosan aylanmadan soliq to'lovchilar bo'lib, ularga yillik aylanmasi 1 mlrd so'mga yetmagan tadbirkorlik subyektlari kiradi.

Hisob yuritishni osonlashtirish maqsadida ularga aylanmadan 2 foizdan 4 foizgacha yoki qat'iy belgilangan summada aylanmadan olinadigan soliqni to'lash imkoniyati berilgan. Ushbu segmentlar ma'muriy tuzilmalar va ularning vazifalarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlar salohiyatidan kelib chiqqan holda soliq stavkalari hududlar kesimida turlicha belgilanadi yoki hududda tashkil etilgan iqtisodiy zonalarda ro'yxatdan o'tgan korxonalar soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

Shu bilan birga, ma'lum bir hududda soliq qonunchiligini buzishga moyillik yuqori bo'lishi mumkin. Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda soliq to'lovchilar hududlar kesimida ham segmentlarga ajratiladi.

Hududlar kesimida shubhali operatsiyalar bilan bog'liq subyektlar soni tahlil qilinganda, Toshkent shahri, Andijon viloyati va Toshkent viloyatida bunday subyektlar boshqa hududlarga nisbatan ko'proq ro'yxatdan o'tgani kuzatiladi (2-jadval).

## 2-jadval

### Shubhali operatsiyalar bilan bog'liq subyektlar soni (2025-yil noyabr holatiga)<sup>2</sup>

Hududlar	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Jami	5 082	100%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	354	7%
Andijon viloyati	640	13%
Buxoro viloyati	316	6%
Jizzax viloyati	112	2%
Qashqadaryo viloyati	273	5%
Navoiy viloyati	144	3%
Namangan viloyati	435	9%
Samarqand viloyati	234	5%
Sirdaryo viloyati	209	4%
Surxondaryo viloyati	223	4%
Toshkent viloyati	608	12%
Farg'ona viloyati	549	11%
Xorazm viloyati	144	3%
Toshkent shahar	826	16%
Hududlararo inspeksiyasi	15	0%

Bu esa ushbu hududlardagi ayrim soliq to'lovchilarda soxta bitimlar tuzish orqali soliq xavfi boshqa hududlardagi soliq to'lovchilarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, soliq organlari tomonidan ushbu hududlarda profilaktik va nazorat choralarini kuchaytirish kengroq qo'llaniladi.

Soliq to'lovchilarning xulq-atvoridan kelib chiqqan holda ularning soliq xavfi darajalari aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, soliq to'lovchilar soliq xavfi yuqori, o'rta va past bo'lgan toifalarga ajratiladi.

Qaror talablaridan kelib chiqqan holda, soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarda soliq auditi, soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchilarda esa sayyor va kameral soliq tekshiruvlari tayinlanadi. Soliq xavfi past bo'lgan soliq to'lovchilarda nazorat tadbirlari o'tkazilmaydi.

Segmentlashning yana bir turi sifatida yuqori likvidli tovarlar savdosi ustidan soliq nazoratini oshirish maqsadida ularni aksiz solig'iga tortishni keltirish mumkin. Jumladan, alkogol, tamaki hamda neft-gaz mahsulotlari shular jumlasiga kiradi.

2 *Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi*

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni qabul qilingan [6]. Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab transport vositalariga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish, shuningdek, alkogol va tamaki mahsulotlari uchun to'lovlarni faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirish belgilangan.

Soliq qo'mitasi tomonidan soliq xavfini bartaraf etish yoki uning oldini olishga qaratilgan bir qator dasturlar ishlab chiqilgan. Shunday dasturlardan biri "Soliq hamkor" tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim orqali jismoniy shaxslar soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga yuborishlari mumkin.

Soliq organlari tomonidan mazkur murojaatlarda keltirilgan holatlarning mavjudligi sayyor soliq tekshiruvi orqali aniqlashtiriladi. Sayyor soliq tekshiruvi davomida zarur hollarda nazorat xaridi amalga oshirilib, soliqqa oid huquqbuzarlik holatiga aniqlik kiritiladi.

Mazkur tizim, bir tomondan, iste'molchilarning xarid chekini talab qilish hamda xarid summasining bir qismini qaytarib olish huquqini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, yashirin iqtisodiyot va nazoratdan tashqari P2P operatsiyalarini qisqartirishda qonunbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmidan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunda soliq to'lovchilar va iste'molchilarning huquqbuzarlik holatlari yuzasidan soliq organlariga xabar berishdagi faolligi tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur 3-jadvalda 2022-2024-yillarda tizim orqali kelib tushgan murojaatlar soni dinamikasini hamda aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlik turlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin. 3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 91–92 foiz murojaatlar chek bermaslik bo'yicha kelib tushgan. Bu esa daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavfning mavjudligini anglatadi.

### 3-jadval

#### Soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida Soliq-hamkor tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar.<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil		O'zgarishi, foizda	
	soni	Ulushi, %	soni	Ulushi, %	soni	Ulushi, %	2023/2022	2023/2024
Jami murojaatlar soni	145224	100	122099	100	99128	100	-16	-19
Shundan, chek bermaslik	132818	91,5	112926	92,5	90216	91,0	-15	-20
To'lovni plastik karta orqali qabul qilmaslik	6 056	4,2	4 777	3,9	4 273	4,3	-21	-11
Plastik karta uchun xarid summasini oshirish	496	0,3	238	0,2	212	0,2	-52	-11
Boshqalar	5 854	4,0	4 158	3,4	4 427	4,5	-29	6
Takroriy yoki tekshiruv davom etayotganligi sababli qaytarilgan	67 885	46,7	68 329	56,0	54435	54,9	1	-20
Tekshirilgan	71 957	49,5	48 668	39,9	37897	38,2	-32	-22
Ko'rib chiqish jarayonida	5 382	3,7	5 102	4,2	6 915	7,0	-5	36

Aniqlangan huquqbuzarliklar soni o'tgan yilga nisbatan 2023-yilda 16 foizga, ya'ni 145 mingtadan 122 mingtagacha kamaygan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 19 foizga, ya'ni 99 mingtagacha kamaygan.

Ushbu tendensiya daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavf tizim ishga tushirilishi natijasida yildan-yilga kamayib borganini ko'rsatadi. Shuningdek, murojaatlarning 40–50 foizi rad etilgani tizim doirasida kelib tushgan murojaatlarni segmentlash tajribasi yaxshi yo'lga qo'yilganini bildiradi.

Mazkur 4-jadval ma'lumotlari tahlil qilinsa, murojaatlarning eng ko'p qismi, ya'ni 28–33 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Buni ushbu hududda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari sonining boshqa hududlarga nisbatan ko'pligi hamda daromadlarni yashirish bilan bog'liq xavfning salmoqli ekanligi bilan izohlash mumkin.

Murojaatlar sonining o'zgarishiga mos ravishda o'tkazilgan tekshirishlar soni ham kamayib, kamayish tendensiyasi 2023-yil hamda 2024-yillarda mos ravishda 35 foiz va 29 foizni tashkil etgan.

Xavfni bartaraf etishga qaratilgan samarali instrumentlardan yana biri "Avtokameral" dasturi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 138-moddasida "Avtokameral" dasturi tekshiruvdan oldingi tahlil sifatida belgilangan bo'lib, unga soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini hamda uning faoliyati to'g'risidagi boshqa

3 Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



axborotni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish deb ta'rif berilgan [7].

Bunda avtomatlashtirilgan tahlilni o'tkazish uchun zarur tashqi manbalar shakllanganligini inobatga olish lozim. Agar tashqi manbalar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, "Avtokameral" dasturi kutilgan natijani bermasligi mumkin.

#### 4-jadval

#### Soliq-hamkor tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar asosida o'tkazilgan sayyor tekshiruvlar tahlili<sup>4</sup>

Hududlar	2022 yil		2023 yil		2024 yil		O'zgarishi, foizda	
	tekshiruv soni	Ulushi, %	tekshiruv soni	Ulushi, %	tekshiruv soni	Ulushi, %	2023/2022	2023/2024
Jami Respublika	72 047	100	46 568	100	33 053	100	-35	-29
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 466	2,0	553	1,2	996	3,0	-62	80
Andijon viloyati	3 842	5,3	2 200	4,7	2 274	6,9	-43	3
Buxoro viloyati	3 591	5,0	2 640	5,7	1 843	5,6	-26	-30
Jizzax viloyati	2 484	3,4	1 656	3,6	826	2,5	-33	-50
Qashqadaryo viloyati	5 007	6,9	3 541	7,6	2 287	6,9	-29	-35
Navoiy viloyati	3 983	5,5	2 556	5,5	1 203	3,6	-36	-53
Namangan viloyati	3 112	4,3	1 926	4,1	1 772	5,4	-38	-8
Samarqand viloyati	5 565	7,7	5 680	12,2	3 106	9,4	2	-45
Sirdaryo viloyati	1 912	2,7	1 187	2,5	680	2,1	-38	-43
Surxondaryo viloyati	3 642	5,1	2 513	5,4	1 671	5,1	-31	-34
Toshkent viloyati	6 623	9,2	4 034	8,7	2 971	9,0	-39	-26
Farg'ona viloyati	3 736	5,2	2 068	4,4	1 825	5,5	-45	-12
Xorazm viloyati	3 027	4,2	1 948	4,2	2 267	6,9	-36	16
Toshkent shahri	24 057	33,4	14 066	30,2	9 332	28,2	-42	-34

Tahlil soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to'lovchining ishtirokisiz o'tkaziladi. Soliq organlarining avtomatlashtirilgan tizimi soliq to'lovchi to'g'risidagi mavjud butun ma'lumotni tahlil qiladi. Bu soliq to'lovchini identifikatsiya qilish, Soliq kodeksiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan soliqni hisoblab chiqarish va natijani soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar bilan solishtirish imkonini beradigan ma'lumotlardir.

Xususan, EHF, jumladan, MXIK, BYuD, elektron inyoislar (hisobvaraqa-fakturalar), TSOYaEAT, kadastr va "E-ijara" tizimlaridagi ma'lumotlar, my.soliq.uz tizimidagi onlayn-NKM cheklari hamda soliq organlarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Ushbu ma'lumotlar soliq to'lovchi tomonidan muayyan muddatlarda taqdim etilgan soliq hisobotlari ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

"Avtokameral" mezonlari takomillashtirilib, tegishli davr holatiga ko'ra ularning soni 500 taga yaqinlashgan. Mazkur mezonlar asosidagi hisob-kitob natijalarini my3.soliq.uz portali orqali soliq to'lovchilar tomonidan ko'rish imkoniyati yaratilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, xavflarning o'zini ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Ularning birinchi guruhi tabiiy xususiyatga ega va oldindan baholash mushkul bo'lgan tabiiy-texnik muammolar bo'lib, bu kabi xavflarni boshqarish hamda ularning salbiy oqibatlarining oldini olish fan taraqqiyoti darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy xavflarni, garchi aniqlash imkoni bo'lsa-da, ularning oqibatlari darajasi tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan juda yuqori bo'ladi hamda ularni bartaraf etish nisbatan murakkab hisoblanadi.

Iqtisodiy xavflar esa oqibati jihatidan ijtimoiy hisoblanadi. Ularni baholash, kelib chiqish omillarini aniqlash va boshqarish birmuncha murakkab bo'lsa-da, ular tabiiy xavflarga nisbatan pastroq salbiy oqibatlarga ega.

4 Manba Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3839746>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2018-yil 29-avgustdagi 2018-68-son "Davlat soliq xizmati organlarida soliqqa oid huquqbuzarlik xavfini tahlil etish tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. Adliya vazirligida 2018-yil 5-oktabrda 3075-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/-3967189>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5073459>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5206072>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 8-iyuldagi 2019-45-son qarori bilan tasdiqlangan "Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlarini belgilash to'g'risida"gi nizom. Adliya vazirligida 2019-yil 12-iyulda 3172-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-4412686>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda PF-246-son "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7897630>
9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. 138-modda. <https://lex.uz/docs/-4674902>
10. Nasimov R.A. Soliq yukini optimallashtirish yo'llari: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2024.
11. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. — М.: ООО «А ТЕМП», 2006.
12. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. — М.: ИПЦ «Вазар-Ферро», 1994.
13. Севрук В.Т. Банковские риски. — М.: Дело ЛТД, 1994.
14. Грабовой П.Г., Петрова С.Н., Полтавцев С.И. Риски в современном бизнесе. — М.: Аланс, 1994.
15. Лаврушин О.И. Банковские риски. — М.: КНОРУС, 2007.
16. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. — М.: ИКЦ «ДИС», 1997.
17. Сэй Ж.Б. Трактат по политической экономии. — М.: Директ-Медиа, 2007.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)